

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.I.Nurmatova

Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi 107

D.B.Mahometova

Use of information technologies in education..... 112

M.Norinov

Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi..... 115

G.T.Hojikarimova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 119

X.M.Jo'rayev

Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari 123

N.B.Odilxo'jazoda

Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari..... 128

B.T.Tojibayev, S.S.Isokov

Globallashuv kontekstida – ta'lim 132

D.Q.Oxunova

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari..... 136

N.E.Yuldasheva

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 140

B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova

Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish..... 144

FALSAFA**Б.С.Ганиев**

Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане 150

M.D.Pardaeva

Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati..... 156

Z.P.Nadirova

Intuitive cognition as a synergistic process..... 161

X.X.Raxmatova

Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot 165

Z.A.Akhmedova

Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili..... 170

B.X.Karimov

Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini..... 175

L.M.Karimova

Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari 180

M.M.Gulamova

Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati..... 185

O.T.Sharipova

Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olami Kabir" haqida 189

Sh.B.Sattorova

Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos taddiqi..... 194

B.X.Hamdamov

Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari 200

ХОJAGON TASAVVUFİY TA'LIMOTIDA “OLAMI KABIR” HAQIDA

МИСТИЧЕСКОЕ УЧЕНИЕ ХОДЖАГАНА О «ВСЕЛЕННОЙ ВЕЛИКИХ»

THE MYSTICAL TEACHING OF KHOJAGAN ABOUT THE “UNIVERSE OF THE GREAT”

Sharipova Oygul Tursunovna¹

¹Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xojagon tasavvufiy tariqatining takomillashib, keng yoyilishi, ushbu tasavvufiy tariqat asoschisi Abdulxoliq G'ijduvoniyan keyingi rivojlanish, ularning tariqatdagi faoliyatlarining falsafiy tahlili qilingan. Xojai Jahan ma'naviy meroslari asosida ulug' zotlar tarbiyalanib yetishganlar. Jumladan, Xoja Ahmad Siddik, Xoja Avliyoi Kabir, Xoja Orif Revgari, Xoja Bahauddin Naqshband va boshqa ko'plab kishilar u zotdan ma'naviy fayz olib kelganlar. Silsilada omonatni - shayxlik ijozatini xalifalari Xoja Orif Revgariiga topshirganlar. Shu ma'noda olganda Abduxoliq G'ijduvoniyan merosi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qrayotgan yoshlarimizning barkamol bo'lib ulg'ayishlarida xizmat qiladigan ma'naviy xazinalardan biri o'z aksini topgan.

Аннотация

В данной статье производится совершенствование и широкое распространение суфийского ордена Ходжагана, развитие после основателя этого суфийского ордена Абдулхалика Гиждувани, а также философский анализ их деятельности в ордене. На основе духовного наследия Ходжай Джакхана были воспитаны великие люди. Среди них Ходжа Ахмад Сиддик, Ходжа Аслийои Кабир, Ходжа Ариф Ревгари, Ходжа Бахауддин Накшбанд и многие другие получили от него духовные благословения. В Силсиле депозит - с разрешения шейха - был передан Ходже Арифу Ревгари его халифами. В этом смысле духовное наследие Абдухалика Гиждувани отражено в одном из духовных союзов, которое послужит нашей молодежи, закладывающей основы Третьего Возрождения в Новом Узбекистане.

Abstract

In this article, the improvement and wide spread of the Khojagan Sufi order, the development after the founder of this Sufi order, Abdulkhaliq Gijduvani, and the philosophical analysis of their activities in the order are made. On the basis of Khojai Jahan's spiritual heritage, great people were brought up. Among them, Khwaja Ahmad Siddiq, Khwaja Avliyoi Kabir, Khwaja Arif Revgari, Khwaja Bahauddin Naqshband and many others received spiritual blessings from him. In Silsila, the deposit - the sheikh's permission - was handed over to Khoja Arif Revgari by his caliphs. In this sense, the spiritual legacy of Abdulkholiq Gijduvani is reflected in one of the spiritual treasures that will serve our young people who are laying the foundations of the Third Renaissance in New Uzbekistan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, Xojagon tariqati, tariqat odobrlari, zikr, samo, ilm, ijtimoiy hayot, axloqiy tarbiya, komil inson.

Ключевые слова: суфизм, тарикат (путь), тарикат Ходжаган, этикет тариката, зикр, само, наука, социальная жизнь, зрелый человек.

Key words: Sufism, tariqat (way), tariqat Khojagan, etiquette of tariqa, dhikr, samo, science, social life, mature person.

KIRISH

Muhtaram Prezidentimiz “Ta'kidlash joizki, Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham biz jahondagi ilmiy - madaniy tashkilotlarni O'zbekiston madaniy merosini o'rghanish, asrab-avaylash va targ'ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlardagi shu yo'lida birga ishlash istagini bildirgan olimlar va mutaxassislarga har tomonlama yordam berishda davom etamiz”[1,37],- degan fikrlaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda insonparvarlik ta'limoti hisoblangan tasavvufiy muammolarga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar samarali natijalar bermoqda.

Kommunikatsiya vositalarining takomillashganligi, global ongning vujudga kelganligi yosh avlod tarbiyasiga har qachondagidan ham jiddiy e'tibor berish kerakligini taqozo etadi. Bu boradagi vositalardan biri ijtimoiy faollikni targ'ib etuvchi ta'limot-bu tasavvufdir. Bizga ma'lumki, Tasavvuf ta'limotida tariqatlar ko'p. Shu tariqatlardan biri Xojagon tariqatidir. Mazkur tariqat asoschisi Xojai Jahan unvoniga sazavor bo'lgan ulug' insonparvar mutafakkir Abdulkholiq G'ijduvoniydir. Xojagonlik tariqati asosida naqshbandiya tariqati vujudga kelgan.

Butun umrini insoniyat ma'naviy – ruhiy kamoloti yo'liga bag'ishlagan buyuk vatandoshimiz Xojai Jahan nomi bilan ma'lum va mashhur Abdulkholiq G'ijduvoniy hamda Bahauddin Naqshband

hayoti va faoliyatini, ular qoldirgan boy ilmiy-diniy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosining insonparvarlik mohiyatini chuqr o'rganish, shu asosda xalqimizni, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarurligi doimiy targ'ib qilinib kelmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi global jamiyatda inson qalbi va ongi uchun kurash ketayotgan bir pallada tasavvufning ilg'or va buniyodkor g'oyalalarini o'rganish, ularni hayotga tadbiq etish bizga katta mas'uliyat yuklaydi. Insonni inson degan nomga munosib bo'lish ruhida tarbiyalaydigan tasavvuf ta'lilotiga va uning yirik vakillari hayoti va ijodiga davlatimiz rahbarining ko'rsatayotgan alohida e'tibori tufayli qadamjolari obod etilib, ularning ma'naviy merosini, aziz-avliyolarning ta'lilotlarini keng o'rganib, targ'ib etish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni, tarixiy, madaniy - ma'rifiy merosni tiklash ulug' mutafakkirlarimizning ta'lilotlarini o'rganish, ilmiy - nazariji jihatdan tahlil qilish shu asosda tug'ilgan fikr va mulohazalarni yoshlar ongiga singdirish, O'zbekistonda tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun dunyoviy ta'lim yutuqlarini joriy etish bilan birga ma'naviyat olamining muqaddas kitobi va risolalari, tasavvuf ilmining namoyandalari asarlaridan ilmiy ravishda keng foydalanish lozim. Mamlakatimizda ma'rifiy islomni rivojlantirish, buyuk allomalar qadamjolarini obod qilishga qaratilgan e'tibor xalqaro miqyosda tan olinmoqda. Xususan Islom hamkorlik tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – ISESCO tomonidan Buxoro shaxri 2020 yilda Islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qilindi. Juda ulkan tarbiyaviy - ma'rifiy, insonparvarlik mohiyatiga ega bo'lgan ulug' mutasavviflar ta'lilotini o'rganish, o'z milliy ma'naviyatini doimo rivojlantirishga e'tibor beradigan O'zbekistonimiz xalqi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu maqsadda tasavvufiy ifroniy ta'lilotning buyuk asoschilaridan biri sifatida Xojai Jahon Abduxoliq G'ijduvoniy ta'lilotini o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xojai Jahon-Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy XII asrning II choragi XIII asrning boshlarida yashab o'tgan, xojagon-naqshbandiya tasavvufiy tariqatining asoschisi hisoblanadi. Abduxoliq G'ijduvoniy dunyoqarashining shakllanishida Xoja Yusuf Hamadoniynnig o'rni va roli katta bo'lgan. Abduxoliq G'ijduvoniy "Maqomoti Yusuf Hamadoni" asrida ustoziga nisbatan "ilhom bag'ishlovchi", "hidoyat qalami", "shafqatli xaja", "valiylik sarvari", "hidoyat qubbasi", "hamadonlik murshid", "shayxlar shayxi", "tariqat sayyohi", "haqiqat dengizining g'avvosi", "payg'ambarlarning xojasi", "g'ayb sirlarining kashshofi", "aziz shayx", "yo'li pok shayx", "buyuk shayx" [1,34] kabi ta'riflarni bergenligining o'zi uning xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi sifatidagi dunyoqarashining shakllanishida va tariqat rivojida o'ziga xos katta rol o'ynaganligining namunasi hisoblanadi;

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy tasavvufiy qarashlarini "Risolai tariqat", "Risolai sahobiya", "Vasiyatnama", "Maqsad as solikin", "Maqomoti Xo'ja Yusufi Hamadoni" va "Risolai shayx ash shuyux hazrati Hoja Abu Yusufi Hamadoni", "Az guftor Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy" kabi asarlarida bayon etgan. Shuningdek, "Maqsad as solikin" asarining hoshiyasiga noma'lum muallif tomonidan yozilgan "Allohnning mahbubi bo'lgan Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy haqida yodhoma" nomli manbada va boshqa yuqorida nomlari tilga olingan asarlarda G'ijduvoniying oriflarga va butun xo'jagonlarga aytgan o'gitlari saqlangan.

Ingliz sharqshunos olimi J.S.Trimingem o'zining "Islomdagi so'fiylar mazhabi" nomli asarida "Abduxoliq G'ijduvoniy asos solgan tasavvufiy tariqat zamon, vaqtlearning vayron qiluvchi ta'sirlariga qaramasdan, hozir ham Xojayi Jahoning muridlik, ta'lim va sof tartibu taomil haqidagi daholik osoru izini (pechat geniya) yo'qotolmadi. Musulmonlik nuqtai nazaridan G'ijduvoniy turklarni sunna bilan aloqalarini mustahkamlashda juda katta xizmat qildi. Hozirgi paytda uning ma'naviy izdoshi Bahovaddin Naqshbandning maqbarasi O'rta Osiyo, Kichik Osiyo, Kavkaz va Hindiston musulmonlarining ziyyaratgohiga aylangan" [2,61-62] degan fikrlarni bayon etgan.

Xojai Jahon ma'naviy meroslari asosida ulug' zotlar tarbiyalanib yetishganlar. Jumladan, Xoja Ahmad Siddik, Xoja Avliyoi Kabir, Xoja Orif Revgariy, Xoja Bahouddin Naqshband va boshqa ko'plab kishilar u zotdan ma'naviy fayz olib kelganlar. Silsilada omonatni - shayxlik ijozatini xalifalari Xoja Orif Revgariyga topshirganlar. Shu ma'noda olganda Abduxoliq G'ijduvoniy ma'naviy merosi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qrayotgan yoshlarimiznnig barkamol bo'lib ulg'ayishlarida xizmat qiladigan ma'naviy xazinalardan biridir.

Xojai Jahon-Abduxoliq G'ijduvoniy bosh falsafiy mavzu, eng oliy qadriyat hisoblangan insonni ham buyuk olam, ham kichik olam. ruhiy-ma'naviy jihatdan zamon va makonga bog'liq bo'Imagan "Olami akbar", ya'ni ulkan ruhiy - ravoniy dunyoning kichik shakldagisidir, odam jismiy-

FALSAFA

jasadiy tomondan “Olami asg’ar”, ya’ni butun jismoniy tabiiy olamning kichiklashtirilgan holda o’z ichiga qarab olgan mayda olam deb atagan. Eng murakkab asror jumboqlardan biri insonning o’zi hisoblanadi. Xudoni va olamni bilish uchun odam bиринчи navbatda o’zini bilib olmog’i lozim. Odam murakkab mavjudot bo’lib, ikki jihatdan – jismiy, jasadiy va ruhiy-ravoniy tomonlardan iborat. Jismiy-jasadiy tomoni uni quyiga, pastga tortadi, ruhiy-ravoniy jihatni esa uni yuqoriga, yuksaklikka jalb etadi. Insonlar Nuriy va Noriy odamlarga taqsimgaganlar. Nuriy odamlar hayotda, yashashda o’zining haqiqiy, abadiy tomoni, ruhiy, ya’ni ilohiy tomoniga e’tibor berib, jismoniy-jasadiy tomonini chegaralaydi. Noriyalar o’tga, olovga o’xshaydigan odamlar bo’lib, ular turli xil nafsga berilgan, qaxru g’azabni namoyon etib, turlicha hirslarga berilgan, hasadgo’y, baxil va cheksiz orzu-havasga berilgandirlar

Insonning eng bиринчи vazifasi, burchi ma’naviy poklik bo’lmog’i lozim. Insonning axloqiy tomoni uning qalbi-dilidadir. Insonning vijdoni uning qalbida Xudo sadosidir. Vijdon o’z asliy amaliyotlari jihatidan alohida shaxs yoki biron jamoat ishi bo’lmasdan inson qalbidagi Haq Taollo sadosi, ilohiy ovozdir Abduxoliq G’ijduvoniynig inson mohiyati haqidagi fikrlari hamma zamonlardagidek, har bir kishining inson degan nomga munosib bo’lib tarbiyalanishi borasida qadrlidir

Har bir tarixiy davr dunyo qarashida, dunyoni his etalishida ratsional va irratsionallik mavjuddir, ular olam va insonni qarama-qarshi nuqtai nazardan bilishga yordam beradi. Xojagon tasavvufiy tariqatining ta’limotida, tariqat odobida barcha amallar, o’gitlar aqliy va noaqliy, ya’ni diskursiv va intuitiv bilishning o’zaro bog’liqligi, aqliy bilish, ya’ni falsafiy, aqliy, tafakkuri bilishning intuitiv ya’ni qalbiy, botiniy, ro’yoga asos bo’lishi e’tirof etiladi. Inson degan nomga munosib bo’lib jamiyat hayotida faoliyat ko’rsatish ham diniy, ham dunyoviy nuqtai nazardan farz ekanligi,- inson aql, zakovat, kuchli iroda, hissiyot, sezgilar, nutq sohibi sifatida jamiyatni boshqarishi, inson ruhiy jihatdan boqiy yashash uchun bu dunyodagi foydalanishi lozim, ma’naviy jihatdan yuksalishi, taraqqiy etishi kerakligi, inson xilvat, xoli, kimsasiz joyda yashash emas, jamiyatda bo’lib, poklanish, soflanish vositasi bilan ruhiy boylik, mangu hayotga o’tish mumkinligi kabi g’oyalar ma’naviy merosida ta’kidlangan[3,20].

Barcha musulmonlarning vazifasi ijtimoiy hayotda barcha insonlarga, ayniqsa beva-bechoralarga mehribonlik qilish, muhtojlarga har tomonlama ko’maklashish, ularning og’ir hayotini yengillashtirish, ojizu zaiflarga shafqatli, g’amxo’r bo’lish, ehsonli bo’lishni, yashashida yaxshilik qilishni, xayri a’molni sodir etishni o’z oldiga asosiy ma’naviy-axloqiy maqsad qilib qo’ymog’i lozim[4,13]. Doimo jamiyatga xizmat qilish, ularning og’irini yengil qilish qo’ldan kelmasa, zarar ham keltirmaslik; barchaga yaxshilik qilish, xayri amolli bo’lish yo’li bilan ma’naviy-axloqiy hayotni yuksaltirish, haqiqiy insoniy fazilat ekanligi[5,7] kabilar buyuk mutasavvif tariqatining ma’naviy negizi hisoblanadi. “Xoja Abduxoliq G’ijduvoni yaytbdurlarki, “xalqdin og’irlikni ko’tarmak kerak va bu muyassar bo’lmas magar halol kasb bila. “Dast ba koru, dil ba yor” degan so’z xojagon tariqatlarida amri muqarrar (ya’ni bajarilishi shart ish) turur”[6,30-31].

Abduxoliq G’ijduvoni ruboiylarida xojagonlik tariqatining mazmun-mohiyati, odobi o’z aksini topgan bo’lib, unda: inson degan nomga munosib bo’lib jamiyat hayotida faoliyat ko’rsatish ham diniy, ham dunyoviy nuqtai nazardan farz ekanligi, inson aql, zakovat, kuchli iroda, hissiyot, sezgilar, nutq sohibi sifatida jamiyatni boshqara olishi, inson ruhiy jihatdan boqiy yashash uchun bu dunyodagi foydalanishi lozimligi, vatanparvar, tinchliksevar bo’lishi, ma’naviy jihatdan yuksalishi, taraqqiy etishiga e’tibor berishi, inson xilvat, xoli, kimsasiz joyda yashash emas, jamiyatda bo’lib, poklanish, soflanish vositasi bilan ruhiy boylik, mangu hayotga o’tish mumkinligi kabi g’oyalar ilgari suriladi.

Xojagon tariqatining “Dast ba koru, dil ba yor” shiori insonni jamiyat hayotida faol bo’lishga undaydigan bunyodkor ta’limotdir. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy aytganilaridek, Xoja Abduxoliq G’ijduvoni asoslagan kamolot yo’li, ya’ni “alrning ravishi tariqatda hujjatdir, barchaga maqbuldir[7,63]. Demak, Xojai Jahon Haqqa nozil bo’lish, ruhni kamol toptirish va komil inson darajasida yuksalishning o’ziga xos yo’lini kashf etgan. Xojagon tariqati kamolot yo’lidir. Xojagonlarnig komil insonni tarbiyalashdagi yo’li-me’yordagi yo’ldir va bu yo’l doimo shariat va sunnatga uyg’un bo’lib, bid’atdan yiroqdir. Xojagonlik yo’li hushyorlik yo’li bo’lib, “Xush dar dam” rashhasiga asoslanadi. U mastlik, behudlikni inkor etib, fanodan baqogacha insonni kamolotga yetaklash, avvalo shariat va sunnatga qattik rioya kilish lozimligini aytgan.

Xojagon-naqshbandiya ta'lomitining eng muxim asoslaridan bo'lmish «rashhalar» («tomchilar») deb ataluvchi o'n bir qoidadan ilk to'rttasi xush dar dam, nazar bar sadam, safar dar vatan va xipvat dar anjuman Xoja Yusuf Hamadoniy tomonidan aytilgan bo'lsa, Xoja Abduxolik Gijduvoniy unga yana to'rt rashha - yodkard, bozgasht, nigohdosht va yoddosht rashhalarini qo'shdi va ularning sonini sakkiztaga yetkazdi. Xoja Abduxolik Gijduvoniy tarkidunyochilikka qarshi chiqib, xilvatga chekinmasdan turib ham Xudoning yodi bilan bo'lish, sayru suluk bosqichlarini bosib o'tish mumkinligini uqtirdi, «Odamlarning bo'yninga yuk bo'imaslik kerak. Bu esa halol kasbkorsiz amalga oshmas»[8,457]. Demak, xojagon tariqati ijtimoiy faoliyatiga haqidagi ta'lomitdir.

Xojagon-naqshbandiya tariqa vakillari Markaziy Osiyo tasavvufining tariqatlargacha bo'lgan davri an'analarini davom ettirib, tarqidunyochilikka qarshi kurash asnosida ijtimoiy faol sufiylikni targ'ib etishdi. A'zolarining asosiy kismini axolining ijtimoiy faol qatlamlari vakillari tashkil etgan mazkur tariqat uzlat va go'shanishinlikka berilmasdan turib ham doimo Xudoning yodi bilan bo'lish, sayru suluk bosqichlarini bosib o'tish mumkinligini uqtirdi. Demak, xojagon-naqshbandiya ta'lomit hosilasi: ijtimoiy faol sufiylikdir.

Xojagon - naqshbandiya tariqatida muridning murshid nazorati ostida sayru suluk bosqichlarini bosib o'tishi shaxsiy amaliyotda *muroqabat* - Xudoni eslashga xalal beradigan noma'qul narsalarni o'ylashdan saqdanish va *riyozat* - o'z nafsi jilovlash va qalb pokligiga erishish maqsadida o'zini bu dunyo rohat-farog'atlari va lazzatlaridan tiyish, murshid bilan bevosita munosabat doirasida esa *tavajjuh* - butun uy - xayol va dikkat-e'tiborni murshidga qaratish, *robita* - murshidga ko'ngil bog'lash orqali u bilan ruhiy aloqa o'rnatish, *suhbat* - doimo murshid bilan birga bo'lish orqali undan nazariy va amaliy bilimlar olishga da'vat etadilar. Demak, xojagon-nakshbandiya tariqatida ta'lum-tarbiya usulida nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmlarni ham o'rganish ga da'vat etiladi.

Xojagon-nakshbandiya sufylari mo'tadil va o'rtamiyona bo'lib, chillada o'tirish va xilvatda o'tirish kabi odatlarni «xilvat dar anjuman» va «safar dar vatan» kabi qoidapar bilan almashtirganlar. Xojagon-nakshbandiya tariqati peshvolari oddiy turmush tarzini tutish hamda bekorchilikdan saqlanish kabi xususiyatlar bilan ajralib turishgan. Bu esa, o'z navbatida, xojagon-naqshbandiya tariqatining keng tarqalishi omili bo'lib xizmat qildi.

Xojagon-naqshbandiya tariqati nafaqat o'zining tarkidunyochilikni qoralovchi va ijtimoiy faol so'fiylikni targ'ib qiluvchi ta'lomit, insonparvarlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik g'oyalari bilan, balki ushbu ta'lomit va g'oyalarning shakllanishi, takomillashishi va keng yoyilishida muxim o'ren tutgan buyuk namoyandalari bilan ham mashxurdir. Ushbu tariqat tarixi shuxrati Markaziy Osiyodan ancha uzoqlarga qadar borib yetgan, butun islom olamida dong taratgan buyuk shaxslar - shayxlar, murshidlar, pirlar tarixi hamdir Yuqorida zikr qilganimizdek, xojagon-naqshbandiya tariqati tarixi bir necha bosqichga bo'linib, tariqatning asoschisi Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy davridan tortib, yettinchi rahbari Xoja Bahouddin Naqshband davrigacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oluvchi bosqichni *xojagoniya* bosqichi, Xoja Bahouddin Naqshband davridan boshlangan ikkinchi bosqichini esa *naqshbandiya* bosqichi deb ataladi. Ushbu tariqat Xojai Jahondan keyin ham rivojlantirildi. Tariqati vujudga kelgan davrlardan boshlab ushbu tariqat bag'ridan ko'plab shayxlar yetishib chiqib, ularning katta qismi ushbu tariqat yoki uning turli mahalliy tarmoqlariga rahbarlik qildilar. Biroq tariqatning Xoja Abduxoliq G'ijduvoniydan to Xoja Baxouddin Nakshbandgacha bo'lgan shayxlaridan yetti rahbari «Xojagon silsilasining yetti piri» nomi bilan alohida ulug'lanadilar

Xojagonlik tariqati shaxs ruhiy xususiyatlarini inobatga olib, kamolot yo'lini belgilagan sulukdir. Bu yo'l boshida Abduxoliq G'ijduvoniyda xufiya zikr bo'lsa, Mahmud Anjir Fag'naviyidan Amir Kulol davrigacha xufiya va jahriya zikr birga bo'lgan. Xojagonlar maktabi soliqlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalagan mакtabdir. Bag'rikenglik samoga bo'lgan munosabatida ham, ya'ni "inkor ham etmaslik, qabul ham qilmaslik"da, "yomonlarga ham yaxshi munosabatda bo'lish, shu orqali ularni tarbiyalash", ayollarni hurmat qilish, teng munosabatda bo'lish, valiylikka yetishgan ayollarga yuksak hurmat bajo keltirish, barcha din vakillarini hurmat qilish kabilarda namoyon bo'ladi.

Xojagonlar nafs tarbiyasiga alohida e'tibor berib, nafs fano sarhadiga yetishi, tamkin darajasiga olib kelishini ko'rsatganlar. Bandalikka eng oliy daraja sifatida qaralgan. Banda ixtiyor to'la ilohiy ixtiyor bilan uyg'un bo'lgan. Bunda Haq rizoligiga erishish asosiy maqsad hisoblangan. Xojagonlar insonga barcha jismoniy, aqliy, nafsoniy, ruhiy quvvatlarni boshqara olish, hamda o'z-

FALSAFA

o'zini anglash va o'zining mikroolami-olami asg'arida olami akbarni-makroolamni, ya'ni ilohiylikni joylashtirishning eng afzal yo'llarini topganlar. "Nazar bar qadam" rashhasi asosida qo'l va oyoq quvvatini jismonan va ma'nан to'g'ri yo'naltira organlar..Xojagonlar tariqatida boshqa tariqatlardan farqli jismonan safar, ma'nан, ruhan safarga aylantirilgan. Xojagon tariqati insondagi xotirani tasnif etib, uni shaytoniy, nafsoniy darajadan poklab, malakiy va oxirida raxmoniy darajasiga yuksaltirish yo'llarini kashf etib, "yodkard", "bozgasht", "nigohdosht", "yoddosht" rashhalari natijasida bunga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Xojagon tariqati vaqt qadriyatiga maxsus e'tibor berish orqali "Xush dar dam" rashhasida har on nafasni asrash, insonni butun mavjudotga nur taratuvchi, ziyo sochuvchi makonga aylantirishni targ'ib etdi. Xojai Jahonning 10 nur ta'limoti sharofati bilan inson qalbida 10 nurni mujassam etish mumkinligini ko'rsatdi. Komil inson qalbida iymon, islom, tavhid, ma'rifat, hidoyat, yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht, shayx nurlari tajalliy etib, butun mavjudotga ilohiy ishq ila mushohada nazar, munosabat qila oladigan bo'la oladi. Xojagon tariqati ruhiy kamolotga erishish maqomlari orqali komil inson darajasiga yetisha olish mumkin deb, insonlarni hidoyat yo'liga boshlaganlar. Insonparvarlikka asoslangan ta'limot sifatida barcha e'tirof etgan ta'limot. Xojagonlik tariqatida yuqorida keltirib o'tilgan falsafaning barcha ontologiya, aksiologiya, praksiologiya, evristik, mantiq, etika-estetika, tanatalogiya, gerantalogiya kabi masalalariga oid fikrlar o'z aksini topganligi barobarida gnoseologiya masalasiga ham maxsus e'tibor berilib, bilishning quyi va yuqori darajasi bilan oliy darajasi dialektikasi, ya'ni ratsional va intutiv bilish aloqadorligiga maxsus e'tibor beriladi. Tariqatdagi boshdan oyoq ifodalangan barcha mohiyat ushbu jarayonning yorqin ifodasidir.

XULOSA

Inson ruhiyatining sir-sanoati cheksizligi fikr, g'oya, iste'dod, yaratuvchanlik, ijodkorlik kabi hodisalarning izohsiz, hech bir ratsional dalilsiz mavjudligi, ularning mohiyatini anglash mushkulligi, muammoga irfoniy yondashish zarurligi, buning uchun nosog'lom ruhiyatning davosi Qur'on mutolaasi ekanligi ta'kidlanadi. Inson tana va ruh birligining hosilasi bo'lib, inson ruhiyati tarbiyasi doimiy bo'lishi, Yaratuvchini tanish va anglash, yaxshi insonlardan tarbiya olish, halol mehnatga o'rganish, halol luqmani iste'mol qilish, kitob mutolaasi bilan mashg'ul bo'lish, yomon odamlardan uzoq bo'lish, jamiyatda faol bo'lish kabi fikrlarni xojagonlarning odob yo'li deyish mumkin.

Xojai Jahon-Abduxoliq G'ijduvoniy asoslagan Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Bobo Samosiy, Hazrat Said Amir Kulol va boshqa murshidlar tomonidan davom ettirilgan, Bahouddin Naqshband asoslagan naqshbandiya ta'limotining tamal toshi bo'lgan xojagon tariqati yaratgan ta'limot Uchinchi Renessans poydevorini qurayotgan Yangi O'zbekiston yoshlarini barkamol qilib tarbiyalashda g'oya va amallari bilan nihoyatda qadrlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy. Maqomoti Yusuf Hamadoniy., T.:, "Yangi asr avlod", 2005yil, -B. 34.
2. Qaralsin: Dj.S.Trimingem. Sufiyskie ordena v islamе. Perevod s angliyskogo na russkiy yazulk A.A.Staviskoy. Moskva. "Nauka" –S. 61-62.
3. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy. Vasiyathnomma.tarj. S.Sayfulloh.N.Hasan, "Mavoraunnahr" 2018. –B. 54.
4. Abdulxoliq G'ijduvoniy. Maqsad as-solikin EzFAShI, Buxoro markazi. Inv.№ 2080; B:13.
5. Boltaev M.N. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy - insondo'st hakim, rif'at shayx. Buxoro.1994. -B.7.
6. I. Sulton. Bahouddin Naqshband abadiyati. – T. : O'z. R. FA. Fan. 1994. –B. 30-31.
7. Navoiy A. Nasoyimul muhabbat min shamoyil ul futuvvat –T.: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – B.63;
8. Rashaxot ayn al-hayot. 2-j, — B. 457.